

MUSIQA VA SAN'AT TURLARINING AHAMIYATI VA ROLI

Andijon viloyati, Marhamat tumani

Isroilova Odina Xaydarovna

29-maktab Musiqa fani Oliy toifali o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola Musiqa va san'at turlari, ahamiyati va roli haqida fikr-mulohaza yuritadi. Shuningdek, maqola musiqa haqida nazariy ma'lumotlar beradi. Mazkur maqoladan san'at sohasida faoliyat yurituvchi mutaxasislar, bu sohada tahsil olayotgan talaba va magistrler hamda mustaqil tatqiqotchilar foydalanishlari mumkim.

Kalit so'z: Janr, folklor, pop, klassik musiqa, Impresionizm, kompozitor, konser, operalar, festivallar, individualizm.

Musiqa — bu insoniyatning eng qadimiy va muhim san'at turlaridan biri. U hissiyotlarni ifodalash, xotiralarni esga olish va turli madaniyatlarni birlashtirish vositasi sifatida xizmat qiladi. Musiqa turli xil janrlar, uslublar va an'analarga ega, masalan: 1. Klassik musiqa - Yevropa musiqasi tarixida muhim o'rinn tutadi va asosan simfoniyalar, sonatalar va opera asarlaridan iborat. 2. Folklor musiqa - Har bir xalqning o'ziga xos an'anaviy qo'shiqlari va raqslardan iborat. 3. Pop musiqasi - Zamonaviy va keng tarqalgan janr bo'lib, keng auditoriyaga mo'ljallangan. 4. Raqs musiqasi - Raqs qilish uchun mo'ljallangan, ko'pincha ritmik va energiyali bo'ladi. Musiqa tinglash, ijro etish yoki yaratish orqali insonlar o'z hissiyotlarini ifodalaydi va boshqalar bilan bog'lanadi.

Klassik musiqa — bu Yevropa musiqasi tarixida muhim o'rinn tutadigan janr bo'lib, asosan 18-19-asrlarda rivojlangan. Ushbu musiqa turli uslublar va davrlarni o'z ichiga oladi, jumladan: Bu davrda musiqada murakkab melodiya va polifoniya (bir vaqtida bir nechta ovozlar) ustunlik qiladi. Johann Sebastian Bach, Georg Friedrich Handel va Antonio Vivaldi kabi mashhur kompozitorlar ushbu davrda faoliyat yuritgan. 2. Klassik davr (1750-1820): Ushbu davrda musiqada oddiylik va balans muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Haydn, Mozart va Beethoven kabi kompozitorlar klassik musiqaning

asoschilaridan hisoblanadi. Ularning asarlari simfoniya, sonata va kvartet shaklida yaratilgan. 3. Romantik davr (1820-1900): Ushbu davrda hissiyotlar va individualizmga katta e'tibor berildi. Shopin, Liszt, Tchaikovsky va Brahms kabi kompozitorlar romantik musiqaning yetakchilari bo'lib, ularning asarlari ko'pincha dramatik va ifodali. 4. Impresionizm (1880-1920): Bu uslubda musiqada rang-baranglik va muayyan hissiyotlarni ifodalashga intilish mavjud. Claude Debussy va Maurice Ravel kabi kompozitorlar ushbu uslubda muhim rol o'ynagan. Klassik musiqa asarlari ko'pincha simfoniyalar, konsertlar, opera va kamerali musiqa shaklida ijro etiladi. Ularning ko'pchiligi bugungi kunda ham keng tarqalgan va turli madaniyatlarda, festivallarda va konsertlarda ijro etiladi.

Jahon sivilizatsiyasining beshiklaridan biri bo'lgan O'zbekistonda xilma-xil janrlardan iborat boy folklor an'analari yuzaga kelgan. Badiiy salohiyati g'oyat yuksak bo'lgan ajdodlarimiz poetik iqtidorini o'zida mujassamlashtirgan xalq og'zaki ijodiyoti durdonalari asrlar davomida bitmas-tuganmas ruhiy quvvat manbai bo'lib kelgan. Zero, folklor san'ati bunyodkorlik va yaratuvchilik g'oyalaridan kuch olib, xalqimizga juda katta ma'naviy quvvat beruvchi qadriyatlar tizimi bo'lib kelgan. Milliy mustaqillikka erishganimizdan keyin ma'naviy qadriyatlarni tiklash va milliy mentalitetimizni belgilaydigan folklor an'alarini tiklash va rivojlantirishga alohida ahamiyat berila boshlandi. Mamlakatimizda kechayotgan ma'naviy-ruhiy tiklanish jarayoni bilan bevosita bog'liq bo'lgan bu jarayon, ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi qayta tashkil etilgandan so'ng keng ko'lamda davom ettirildi. Vazirlikning yangi tarkibi milliy qadriyatlarimizni yanada rivojlantirish, xalq ijodiyotining unutilish arafasiga kelib qolgan tur va janrlarini tiklab, keng ommalashtirish, ayniqsa, o'zbek xalq ijodi durdonalarini jahonda keng targ'ib etishga alohida e'tibor qaratmoqda. Natijada dunyo ma'naviy tamadduniga o'zining benazir ijodiy qudrati bilan munosib hissa qo'shgan xalqimiz yaratgan qadimiy qo'shiqlar, marosim va an'analar bugungi kunda yosh avlodni ezgu an'analar ruhida kamol toptirishning muhim vositalaridan biriga aylandi. O'zbek xalq og'zaki ijodi – ajdodlarimiz badiiy salohiyatining asrlar mobaynidagi taraqqiyoti davomida shakllangan qudratli ma'naviyat xazinasidir. Zukko ajdodlarimizning dastlab voqelikka bo'lgan mifologik qarashlari tafakkur taraqqiyoti

davomida badiiy-estetik hodisaga aylanib, so'z vositasida poetik ifodalashlari natijasida xilma-xil janrlardan tarkib topgan folklor an'analari shakllanib, asrlar davomida xalq badiiy sarchashmasidan oziqlanib, rivojlanib kelgan. Folklor – xalqimizni yuksak qadriyatlar ruhida tarbiyalovchi ma'naviyat sarchashmasidir. Xalq og'zaki ijodiyotida mujassamlashgan xalqona g'oyalar yosh avlodni ma'naviy komil insonlar qilib tarbiyalashda muhim amaliy ahamiyat kasb etgan. Xalq yaratgan beba ho tafakkur durdonalari o'zbek madaniyati, xususan, yozma adabiy an'analarning shakllanishi va takomillashishini ta'minlagan manba bo'lib hisoblanadi. Xalqimiz tomonidan yaratilgan folklor san'ati an'analarini rivojlantirish va yanada kamol toptirishda, ayniqsa, folklor qadriyatlarini jahonga tanitishda o'zbek folklorshunoslari, san'atshunoslar qatori folklor-etnografik jamoalar, askiyachi va qiziqchilar, dorbozlar, xalq hunarmandlari, baxshi-shoirlar, xalfa va jirovlar ulkan ishlarni amalga oshirmoqdalar. O'l kamiz mustaqillikka erishganidan keyin ajdodlarimiz ma'naviy merosiga, ayniqsa, xalq og'zaki ijodiyotiga bo'lgan qiziqish kuchaydi va bu narsa folklor san'ati bilan shug,,ullanuvchi mutaxassislar oldiga ham yanada dolzarb vazifalarni qo'ydi. Ayniqsa, an'anaviy folklor ijrochiligining qadimiy yozuvlarini qayta tiklash, viloyatlarda saqlanib qolgan nodir ijsro yo'llari, folklor janrlari va ularning matnlarini keng ommalashtirish orqali saqlab qolishga alohida e'tibor berilmoqda. Milliy mustaqillik xalqimizning o'z bobolari zakovati tufayli yaratilgan ulkan madaniy merosga bo'lgan munosabatini tubdan yangilab, ajdodlarimiz tarixi, madaniyati, ma'naviy qadriyatları tizimini keng ko'lamda targ'ib etishning misli ko'rilmagan imkoniyatlarini ochib berdi. Istiqlol sharofati bilan dunyoqarashimizda, ongimizda ro'y bergen yangilanish, ruhiy poklanish va ma'naviy tiklanish jarayoni folklor san'atining taraqqiyotida ham yaqqol aks etmoqda. Zero, folklor san'ati an'anaları mustaqil dunyoqarashga ega, ajdodlarimizning beba ho merosi va zamonaviy tafakkurga tayanib yashaydigan barkamol shaxs – komil insonni tarbiyalashdek ulugvor maqsadlarga xizmat qiladi. Ma'lumki, har kim o'lanchi, qo'shiqchi bo'lavermaydi, ko'p qishloqlarda chechan o'lanchilar bo'ladi. Masalan, Toshkent viloyati Ohangaron tumanining Qorabog' qishlog'ida yashovchi Xoljuman Umar o'g'li juda usta o'lanchi bo'lgan. Umtoy (Umidoy) degan qiz uning harfdoshi (tarafi) bo'lib, ularni Obliq, Qorabog', Gulbog', Ochamayli kabi yon atrofdagi qishloq

to‘ylariga aytganlar. Ular qatnashgan to‘ylar juda qizigan. Shu kabi Namangan viloyati Pop tumanining Uyg‘ur, Chorkesar qishloqlarida yashovchi To‘ychi, Yusuf kabi o‘lanchilar ham bo‘lgan. Har joyda mana shunday o‘lanni ko‘p biladigan chechanlar bo‘lgan. Ko‘p joylarda o‘lanni qizlar uy yoki o‘tovning ichida, yigitlar dala (tashqari)da aytadi. Ochiqlikda, ma’lum joyda yuzlari ochiq aytsalar ham, qizlarning o‘rilgan sochlari, yuzlari ko‘rinib tursa ham, jelak yoki ro‘mollari kulgi vaqtida og‘izlarini berkitishga, boshlarining ochilib qolmasligiga yordam beradi. Ochiq chehralari, lablaridagi tabassum ko‘rinib turadi. O‘lanchilar tomoshabinlarga nisbatan yana erkinroq, yana sho‘xroq ko‘rinadilar. Odatda o‘lanni yigitlar boshlaydi. O‘landa ham aniq misralar bo‘ladi. Butunlay yangi o‘lan ham aytildi. Ba’zi o‘lanlar borki, O‘zbekistonning qaysi burchagiga bormang, shu o‘lanni bilishadi. Masalan, quyidagi o‘lanlar bir-biridan uzoq tumanlardan bir necha variantlarda yozib olingan. Xulosa qilib aytganda, qizlar bazmida lapar aytish an’anasining so’nishi professional qo‘schiqchilikning keng o’rin olishiga sabab bo’ldi. Bu jarayonda faqat professional san’atkorlar repertuariga o’tib o’zlashgan laparlargina saqlanib qoldi va mazkur janrning jonli ijroda yashashini taminladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Q.Rahimov “Xalq musiqa ijodiyoti” Namangan.
2. F.M. Karamatov, “O‘zbek xalq musiqa merosi” Toshkent G’. G’ulom nomidagi nashriyot 1978-yil